

Raximbayeva Madina Murodjon qizi

Urganch davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

OILA TARBIYASI METODI , SHAKL VA VOSITALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada bolalarni tarbiyalash shakllari, metod va vositalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, oilaviy munosabat, axloqiy tarbiya, pedagogik tayyorgarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, shaxs kamoloti, pedagogik jarayon.

Oila ikki ustundan iborat:

Birinchisi - iqtisod, ikkinchisi - ma'naviyat. Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma'naviyatda sharoitdan kelib chiqmoq kerak. Shunda oila mustahkam qo'rg'onga aylanadi. Eng do'zaxi ayol - eri imkoniyati darajasidan ortiq talab etuvchi ayoldir, - deb uqtiriladi muborak hadislarda. Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota - onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy hayotning tashkil etilishidan iborat. Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan;
2. Ota - onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya buziladi. Bolalariga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota - onalar ularni hurmat qilishdan oldin, o'zlarini ham hurmat qilishni o'rgatishlari zarur;
3. Ko'pgina ota - onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la his qilmaydilar.
4. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo ota - onalarning o'zlarini - o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir ob'ekti va sub'ektidir. Biroq ota - ona bola ana shunday ob'ekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi kerak. Ammo barcha ota - onalar ham buni tushinib yeta olmaydilar;
5. Har bir ota - ona bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdor. Ota - onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota - ona, eng avvalo mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy - huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi. Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar „Vatan“, „xalq“ tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni

saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el - yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim. Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota - ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, ota - onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota - onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi.

Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch - oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota - ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab - quvvatlash va hokozolar. Oila tarbiyasi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ota onalar yoki shaxs kamoloti uchun ma'sul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X.Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. - 400 b.
2. <http://genderi.org>>mavzu
3. <https://cyberleninka.ru>>oil...